MAKTABDA XAVFSIZ PSIXOLOGIK MUHITNI YARATISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

D.D.Oribboyeva[1], A.Sh.Eshqobilova[2]

1. Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, DSc

2. Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

Mas'ul muallif: Oribboyeva Dilafruz Dadamirzayevna, Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, DSc.

e-mail: oribboyevad@gmail.com

Received: 26 Oktabr 2026
Accepted: 31 Oktabr 2026
Published: 05 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Oribboyeva, D. D. MAKTABDA XAVFSIZ PSIXOLOGIK MUHITNI YARATISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI / D. D. Oribboyeva, A. S. Eshqobilova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 71–74.

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab o'quvchilari o'rtasida uchraydigan bulling hodisalarining psixologik-pedagogik oqibatlari, uning asosiy shakllari va o'quvchi shaxsining ruhiy salomatligi, o'qish motivatsiyasi, akademik o'zlashtirishi hamda ijtimoiy moslashuviga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bullingning verbal, jismoniy, ijtimoiy va kiber shakllari, ularni oddiy nizolardan farqlovchi mezonlar hamda jabrlanuvchilarda yuzaga keladigan emotsional va ijtimoiy muammolar yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim muassasalarida xavfsiz psixologik muhitni yaratish, bulling holatlarining oldini olish, o'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash hamda mazkur yo'nalishdagi huquqiy va profilaktik mexanizmlarni takomillashtirish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: psixologik bosim, ijtimoiy ajratish, tahqirlash, kiber zo'ravonlik, maktab, xavfsiz muhit, bulling, qurbon.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ СОЗДАНИЯ БЕЗОПАСНОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ В ШКОЛЕ

Аннотация. В данной статье проведён научно-теоретический анализ психолого-педагогических последствий буллинга среди школьников, его основных форм и влияния на психическое здоровье учащихся, учебную мотивацию, академическую успеваемость и социальную адаптацию. Рассмотрены вербальные, физические, социальные формы буллинга и кибербуллинг, критерии их разграничения с обычными конфликтами, а также эмоциональные и социальные проблемы, возникающие у пострадавших. Кроме того, на основе международных исследований и передового зарубежного опыта обоснована необходимость создания безопасной психологической среды в образовательных учреждениях, профилактики буллинга, психологической поддержки учащихся, а также совершенствования правовых и профилактических механизмов в данной сфере.

Ключевые слова: психологическое давление, социальная изоляция, унижение, кибернасилие, школа, безопасная среда, буллинг, жертва.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR CREATING A SAFE PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT AT SCHOOL

Abstract. This article presents a scientific and theoretical analysis of the psychological and pedagogical consequences of bullying among school students, its main forms, and its impact on students' mental health, learning motivation, academic achievement, and social adaptation. Verbal, physical, and social bullying, as well as cyberbullying, are examined, along with the criteria that distinguish these phenomena from ordinary conflicts and the emotional and social problems experienced by victims. Furthermore, drawing on international research and best foreign practices, the article substantiates the need to create a safe psychological environment in educational institutions, prevent bullying, provide psychological support for students, and improve legal and preventive mechanisms in this field.

Keywords: psychological pressure, social exclusion, humiliation, cyberviolence, school, safe environment, bullying, victim.

Jahon miqyosida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, milliy ta'lim strategiyalari va xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga ko'ra, maktab muhitida yuzaga keladigan psixologik bosim, ijtimoiy ajratish, tahqirlash, kiber zo'ravonlik kabi bulling holatlari nafaqat o'quvchilarning psixik sog'lig'i va o'zlashtirish darajasiga, balki umuman jamiyatning axloqiy iqlimiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi (Olweus, Smith, UNESCO) oqibatida 2019-yilda UNESKOning 193 a'zo davlatlari ishtirok etgan yig'ilishda noyabr oyining birinchi payshanbasini «Maktabda va internetda xalqaro zo'ravonlikka qarshi kurashish kuni» sifatida nishonlash haqidagi qaror qabul qilindi. Ushbu tadbirni ta'lim tizimidagi zo'ravonlikning oldini olish va to'xtatish maqsadida 2020-yildan boshlab har yili o'tkazilishi belgilangan bo'lib, xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida bullingga qarshi yondashuvlar mustahkam qonunchilik, metodik dasturlar, psixologik xizmatlar, raqamli

xavfsizlikni ta'minlash kabi ko'p qirrali tadbirlar asosida amalga oshirilmoqda. Ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish hamda milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali ta'lim subyektlarining psixologik tinchligi va xotirjamligi, farovonligi va barqarorligini ta'minlash hamda pedagogik jarayonni zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bois guruh va turli ijtimoiy guruh vakillari o'rtasida sodir bo'ladigan bulling hodisasini oldini olish va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

«Bulling» atamasi inglizcha «bully» (zo'ravon, bezorilik qiluvchi) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab XIX asr oxirida ingliz tilidagi adabiyotlarda nojo'ya hazillar, maktabdagi kaltakbozlik va o'zaro zo'ravonliklarni ifodalashda ishlatilgan. Bugungi kunda esa «bulling» tushunchasi zamonaviy pedagogika va psixologiyada shaxslararo munosabatlardagi tajovuzning takroriy, ongli va asimmetrik (kuchlar nomutanosibligi) holatini ifodalovchi ilmiy termin sifatida mustahkam o'rin egallagan [1].

Bulling holatlarining asosiy belgilari va farqlovchi jihatlarini ko'rib chiqaylik. Ilmiy adabiyotlarda bulling hodisasi quyidagi uchta asosiy kriteriy bilan ajralib turadi:

Kuchlar nomutanosibligi – agressor jismonan, ijtimoiy jihatdan yoki emotsional jihatdan ustun pozitsiyada turadi. Takroriylik – tajovuzkor harakatlar bir martalik emas, balki tizimli va uzluksiz takrorlanadi. Onglilik – harakatlar tasodifiy emas, balki ongli va maqsadli zo'ravonlikni ifodalaydi.

Bullingni oddiy nizolar, janjallar yoki bahs-munozaralardan ajratib turuvchi jihat ham aynan shulardir. O'zaro kelishmovchilik har ikki tomonning kuchi va irodasi teng bo'lgan sharoitda yuz berishi mumkin, bullingda esa bir tomon mutlaqo zaif va himoyasiz holatdadur [1:3].

Bullingning turlari uning amalga oshirilish usuli, ijtimoiy ta'sir darajasi va sezilishi bo'yicha turlicha shakllarda ifodalanadi. Ilmiy-pedagogik yondashuvda quyidagi asosiy turlari ajratib ko'rsatiladi:

Verbal bulling. Bu shakl o'quvchilar o'rtasida eng keng tarqalgan bo'lib, og'zaki tahqir, haqorat, ayblov, masxara, qo'rqitish, laqab qo'yish, pastga urish shaklida namoyon bo'ladi.

Verbal bullingning quyidagi shakllari mavjud: masxarali laqablar qo'yish; sha'ni yoki kelib chiqishi ustidan kulish; «Sen hech narsaga yaramaysan», «Sen bilan hech kim o'ynamaydi» kabi ifodalar; doimiy tanbeh va boshqa o'quvchilar oldida kamsitish.

Verbal bullingning xavfi shundaki, u tez-tez «hazil», «sho'xlik» yoki «bolalarcha qiliq» deb baholanadi. Aslida esa bu o'quvchining psixologik portretini izdan chiqaruvchi bosimdir.

Jismoniy bulling. Jabrlanuvchiga jismoniy kuch ishlatish orqali zarar yetkazishga qaratilgan harakatlar jismoniy bullingga kiradi.

Jismoniy bullingning quyidagi shakllari mavjud: urish, tepish, itarish; qarsak tortish, turtish, bosib o'tish; buyumlarini olib qo'yish yoki sindirish; tana a'zolariga zarar yetkazish, kiyimlariga shikast yetkazish [4].

Jismoniy bulling ko'pincha sinfdan tashqari joylarda – dahliz, sport zalida, maktab hovlisida yoki yo'lda sodir etiladi va aksariyat hollarda yashirin saqlanadi.

Kiberbulling. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi bilan maktab o'quvchilari orasida kiberbulling holatlari ortib bormoqda. Bu – internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va boshqa onlayn platformalar orqali sodir etiladigan tahqirlovchi va tajovuzkor harakatlardir. Kiberbullingning quyidagi shakllari mavjud: qo'rqinchli, kamsituvchi xabarlar yuborish; shaxsiy fotosuratlarni ruxsatsiz tarqatish; yolg'on ma'lumot tarqatish; onlayn guruhlarda ajratish yoki uyatli roliklar joylashtirish.

Kiberbullingning asosiy xavfi shundaki, bu holatlar ko'pincha kattalar nazoratidan tashqarida sodir bo'ladi, doimiy bo'ladi va qochish imkoni yo'q. [3].

Ijtimoiy (sotsial) bulling. Bu – o'quvchini ijtimoiy guruhdan ajratish, e'tiborsizlik qilish, yolg'izlantirish, befarqlik ko'rsatish orqali psixologik bosim o'tkazish shaklidir. Ijtimoiy bullingning quyidagi shakllari mavjud: o'yin yoki mashg'ulotlardan chiqarib qo'yish; o'quvchi bilan gaplashmaslik, uni befarq chetga surish; guruh bo'lib rad qilish; «U bizdan emas», «Sen yolg'izsan» kabi ijtimoiy ajratish strategiyalari.

Ijtimoiy bullingning eng xavfli jihati – u yashirin, ko'p hollarda o'qituvchilar tomonidan sezilmaydi. Ammo bunday ajratish o'quvchining o'zini jamiyatdan chetlatilgan, befoyda va ishonchsiz his qilishiga olib keladi [7].

Bulling holatlari o'quvchining nafaqat maktabdagi ta'limiy faoliyatiga, balki uning ruhiy holatiga, shaxsiy o'ziga bahosi, hissiy barqarorligiga va ijtimoiy moslashuviga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixologik ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra tadqiqotchilar tomonidan bulling qurbonlarida ruhiy travma alomatlari, o'zini izolyatsiya qilish, tashvish holatlari, depressiv kechinmalar va hatto suitsid xavfining ortishi qayd etiladi [5].

Psixologiyada bulling oqibatlarini tushuntiruvchi asosiy nazariyalar quyidagilar:

Travmatik stress nazariyasi (Herman, 1992): Takroriy tajovuz shaxs ruhiyatida stressga chidamsizlik, tashvishli vaziyatlarda tezda sinish, uyqu buzilishi, o'zini aybdor his qilish kabi holatlarni keltirib chiqaradi [2].

O'zini baholash nazariyasi (Rosenberg, 1965): Bulling qurboni o'zini ijtimoiy jihatdan past darajada baholay boshlaydi, «men yaramayman», «hech kim meni yoqtirmaydi» degan ichki monolog shakllanadi. [2].

Ijtimoiy taqqoslash nazariyasi (Festinger, 1954): O'quvchi doimiy ravishda o'zini boshqalar bilan solishtirib, o'zining zaif yoki noloyiq ekanligiga ishonch hosil qiladi [2].

O'zini ayblash mexanizmi: Jabrlanuvchi ko'pincha zo'ravonlik uchun o'zini aybdor his qiladi, bu esa ichki shikastlanish sindromini kuchaytiradi.

Bulling hodisasi faqatgina o'quvchining psixologik salomatligiga emas, balki uning ta'limiy faoliyati, o'quv

jarayoniga bo‘lgan munosabati, o‘zlashtirish darajasi va maktab muhitida ishtirok etishiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatadi [4]. Shu jihatdan, bullingni pedagogik muammo sifatida o‘rganish ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, bulling holatlari kuzatilgan sinflarda o‘quvchilarning akademik natijalari, ta’limga bo‘lgan qiziqishi va intizomi keskin pasayadi [5].

Pedagogik psixologiyada motivatsiya – bu o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, ishtiyoqi va intilishi deya ifodalanadi. Bulling holatlari mavjud bo‘lgan muhitda o‘quvchining ichki motivatsiyasi kamayadi, chunki, o‘zini xavf ostida his qiladi, sinfdoshlarining bahosidan, kulgisidan cho‘chiydi, o‘qituvchilar tomonidan himoyalanmaganini his qiladi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqadi [51:56].

Deci va Ryan (Self-Determination Theory, 2000) nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchining motivatsiyasi uch asosiy ehtiyojga: xavfsizlik, mustaqillik va ijtimoiy tegishlilikka bog‘liq. Bulling natijasida bularning barchasini buziladi hamda izdan chiqadi [3].

Bunday muhitda o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda eta olmaydi, darslarga befarq bo‘ladi, ijodiy topshiriqlarda qatnashmaydi. Bu esa o‘z navbatida uning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir qiladi.

Maktabdan muntazam qochish (truant behavior) bulling qurbonlarida ko‘p uchraydigan muammolardan biridir. O‘quvchi maktab muhitini xavfli, tahdidli deb baholaydi, shuning uchun undan qochadi. Juvonen va Graham (2014) tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bullingga uchragan o‘quvchilarda maktabga bormaslik ehtimoli boshqalarga nisbatan 3 barobar yuqori .

Akademik muvaffaqiyatsizlik – o‘quvchining fanlarni o‘zlashtirish darajasining pastligi, bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanmaganligidir. Bulling bunday muvaffaqiyatsizlikka quyidagi yo‘llar bilan olib keladi: diqqatni jamlay olmaslik (kognitiv stress), mashg‘ulotlarda faol ishtirok etmaslik (ijtimoiy ajralish), o‘qituvchi va guruh bilan bo‘lgan salbiy tajriba, o‘zini ifoda eta olmaslik, qo‘rquv va uyatchanlik .

Rigby (2008) nazarida, bulling mavjud bo‘lgan maktab muhitida o‘quvchilar o‘z imkoniyatlarini ko‘rsata olmaydi, o‘zini zaif his qiladi va bu o‘z-o‘zini rag‘batlantirishni pasaytiradi. Bu esa o‘z navbatida fanning chuqur o‘zlashtirilmasligiga olib keladi [2].

PISA (Programme for International Student Assessment, 2018) natijalari bullingning akademik muvaffaqiyatga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniq ko‘rsatib bergan [56; 60]. Ushbu xalqaro baholash dasturida ishtirok etgan 72 ta davlat qayd etgan tadqiqot natijalarida aniqlanishicha:

- bullingga uchragan o‘quvchilarning o‘rtacha natijalari 40-60 ballga past bo‘lgan;
- maktabda xavfsizlik va do‘stlik muhiti yuqori bo‘lgan maktablar eng yaxshi natijalarga erishgan;
- OECD davlatlarida bulling mavjud bo‘lgan sinflarda o‘rtacha 17% o‘quvchi darsni o‘zlashtirmagan.

TIMSS (2020) tadqiqotida esa matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha natijalar tahlil qilinganda, bullingga uchragan o‘quvchilarning o‘rtacha ballari boshqalarnikiga nisbatan 80 ballga past bo‘lgani aniqlangan [5].

O‘zbekiston misolida, 2022-yilgi ichki monitoring natijalariga ko‘ra:

- bulling holati mavjud bo‘lgan 5-9-sinflar o‘rtasida o‘zlashtirish darajasi 15-20% past;
- 1000 nafar o‘quvchi ishtirokidagi so‘rovda, bullingni boshidan kechirgan o‘quvchilarning 62 foizi maktabni yoqtirmasligini bildirgan;
- Shu guruhdagi o‘quvchilarning 38 foizi o‘zlarini «sinfda keraksiz» deb his qilgan. Bulling o‘quv jarayoniga nafaqat individual darajada, balki butun sinf va maktab miqyosida salbiy ta’sir ko‘rsatishi quyidagi 1.2.1-jadvalda keltiriladi:

Bulling oqibatlari

Ta’sir sohasi	Salbiy oqibatlar
O‘quvchi darajasida	O‘qishga motivatsiyaning yo‘qolishi, past baholar, stress
Sotsial darajada	Guruhlashish, ajralish, sinfdagi ishonchning yo‘qolishi
Maktab darajasida	Ta’lim sifati pasayishi, ishonch yo‘qolishi, ota-onalar ishonchsizligi
O‘qituvchi faoliyatida	Sinfdagi boshqaruv qiyinlashadi, darsgae’tibor kamayadi

Booth va Sheehan (2008) fikricha, bulling ijtimoiy ishonch va hamjihatlikka rahna soladi, bu esa ta’lim samaradorligini pasaytiruvchi muhim omildir. Shuningdek, bu holat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hurmatga asoslangan aloqalami zaiflashtiradi [7].

Bulling hodisasi o‘z tabiatiga ko‘ra nafaqat shaxsiy psixologik, balki jamoaviy, ijtimoiy va madaniy mezonlarga bevosita bog‘liqdir. U o‘quvchi shaxsining jamiyatga integratsiyalashuvi, ijtimoiy identiteti, kommunikativ madaniyati va o‘zaro munosabatlar sifatini jiddiy izdan chiqarishi mumkin. Bu esa bullingning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini alohida tahlil qilish zaruratini tug‘diradi.

Bulling muammosi faqat pedagogik yoki psixologik muammo bo‘lib qolmay, u huquqiy himoyani talab qiluvchi, jamiyatdagi ijtimoiy xavfsizlik, shaxsiy daxlsizlik va bolalar huquqlari bilan bog‘liq dolzarb masaladir. Shu bois, zamonaviy davlatlar bullingga qarshi qonunchilik asoslarini mustahkamlash, institutsional chora-tadbirlarni shakllantirish hamda profilaktika va reabilitatsiya tizimlarini qonuniy yo‘l bilan tartibga solishga intilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham bu borada bir qator huquqiy hujjatlar va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqishga kirishgan [7].

Bugungi globallashuv sharoitida bullingga qarshi kurashish faqat tarbiyaviy yoki psixologik chora bilan cheklanmasligi lozim. Uning oldini olish va unga qarshi samarali chora ko‘rish uchun mamlakat miqyosida qonunchilik asoslarini takomillashtirish, xalqaro tajribalari o‘rganib, moslashtirish, har bir maktabda huquqiy va psixologik monitoring

tizimini joriy qilish zarur.

Shu ma'noda, O'zbekistonda ham bullingga qarshi maxsus qonun hujjatini ishlab chiqish, pedagogik xodimlar uchun huquqiy metodik qo'llanmalarni yaratish, ota-onalar va o'quvchilar ishtirokida bullingga qarshi kompleks dasturlarni joriy etish va ularni huquqiy jihatdan mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

«O'quvchilar o'rtasida bulling holatlarining psixologik-pedagogik oqibatlari»ni o'rganishga bag'ishlangan ushbu paragrafda bulling hodisasining ko'p qirrali salbiy ta'siri tizimli, nazariy va empirik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

Bullingning psixologik oqibatlari – o'quvchilarda kuchli emotsional va ruhiy buzilishlarni, jumladan, depressiya, anksiozlik, o'zini past baholash, identitet inqirozi va suitsid xavfini yuzaga keltiradi. Bu oqibatlar shaxsning ijtimoiylashuvi, ichki muvozanati va umumiy rivojlanishiga tahdid soladi. Xalqaro (WHO, Olweus, Craig, Espelage) va milliy tadqiqotlar buni yaqqol tasdiqlaydi [4-5-7].

Bullingning pedagogik oqibatlari – o'quv motivatsiyasining pasayishi, maktabga nisbatan salbiy munosabat, dars qoldirish, akademik muvaffaqiyatsizlik va o'zlashtirishda keskin pasayish bilan ifodalanadi. Xalqaro testlar (PISA, TIMSS) va milliy monitoring natijalari bulling mavjud bo'lgan muhitda ta'lim sifati 15-20% ga kamayishini ko'rsatmoqda.

Bullingning ijtimoiy-psixologik oqibatlari-ijtimoiy ajratilish, kommunikativ ko'nikmalar zaiflashuvi, agressiya shakllanishi va «buller-qurbon» sindromi orqali namoyon bo'ladi. Bunday oqibatlar o'quvchilarda mustahkam ijtimoiy aloqalar o'rnata olmaslik, o'zini jamiyatda himoyalay olmaslik va normativ qadriyatlarga zid xatti-harakatlarga moyillikni kuchaytiradi [7-8].

Huquqiy asoslarning yetarli emasligi – O'zbekistonda bullingga qarshi kurashish bo'yicha ayrim chora-tadbirlar ko'rilayotgan bo'lsa-da, qonunchilikda bulling atamasining bevosita ifodalanmaganligi, maxsus huquqiy mexanizmlarning mavjud emasligi, aniq qonuniy protokollar va milliy dasturlar yo'qligi uning samarali oldini olishda jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Xalqaro tajriba (AQSh, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Yaponiya va b.) maktablarda bullingga qarshi kurashda kompleks yondashuv, qonunchilik va ta'lim muassasasi siyosati uyg'unligi, o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar ishtirokini ta'minlash orqali muvaffaqiyatli model yaratganligini ko'rsatmoqda [5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] O'zbekiston Respublikasi "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-996. 2024 yil. 14-noyabr.

[2] Александрова Е.А. О составляющих жизнестойкости личности как основе ее психологической безопасности в современном мире // Известия ТРТУ. Тематический выпуск «Гуманитарные проблемы современной психологии». Таганрог: Изд-во ТРТУ, 2005. №7(51). С.83-84.

[3] Алексеева Л.С. Насилие и психическое здоровье детей // Семья в России. 2006. №2. С.73-80.

[4] Гришина Татьяна Геннадьевна Социально-психологические факторы ролевого поведения подростков в ситуации буллинга Специальность 19.00.05 – Социальная психология (психологические науки). Диссертация на соискание ученой степени кандидата психологических наук Научный руководитель: доктор психологических наук, доцент Нестерова А.А. Мытищи – 2020.

[5] Маланцева О. «Буллинг» в школе. Что мы можем сделать? // социальная педагогика. 2007. №4. С.90-92.

[6] Mullabaeva N.M. Maktabdagi xavfsiz muhit bolalar shaxsini rivojlantirish omili sifatida: Ped. fan. dokt. (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 56 b.

[7] Ориббоева Д.Д. Ўсмирлик даврида буллингнинг гендер хусусиятлари // Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy xabarnomasi. – 2023. – №2. – B. 145–152.

[8] Olweus D. Bullying at School: What We Know and What We Can Do. – Oxford: Blackwell, 1993.

[9] Петросянц Виолетта Рубеновна. Психологическая характеристика старшеклассников, участников буллинга в образовательной среде, и их жизнестойкость : диссертация ... кандидата психологических наук : 19.00.07 / Петросянц Виолетта Рубеновна; [Место защиты: Рос. гос. пед. ун-т им. А.И. Герцена]. - Санкт-Петербург, 2011. - 210 с.